

---

# XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 25 - iyul

VI-49-82-11-154-K/2 Buvayda tuman hokimligi

## **Buvayda tumanida 2022-yilning II choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-43-21-11-154-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27,29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

- 1.** Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-43-21-11-154-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan Buvayda tumanida 2022-yil II choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri v.v.b A.Ergashevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

- 2.** Mazkur qaror bilan quyidagilar:

---

- 2022-yil II choragida “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoni natijalari

bo'yicha ma'lumotlar 1- va 2-ilovaga muvofiq;

- 2022-yil II choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg'armasi mablag'larining

shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

- 2022-yil II choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg'armasidan jamoatchilik

fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish

uchun yo'naltirilgan mablag'lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Tuman hokimligi moliya bo'limi v.v.b (A.Ergashev), Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Imomaliyev), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (N.Karimov) hamda mahalla fuqarolari yig'inlari bilan birgalikda iyul oyida o'tkaziladigan “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borsinlar.

**4.** Tuman hokimligi moliya bo'limi v.v.b (A.Ergashev), Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Soliyeva) Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

**5.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha” doimiy komissiyasi raisi (H.Akbarov), ijrosini ta'minlash moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Mirzahalilov) zimmasiga yuklatilsin.

